DISKSIMON ISHCHI ORGANLAR KONSTRUKSIYALARI TAHLILI

Rashidov Nurbek Shermamat o'g'li
dotsent. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Qarshi, O'zbekiston Respublikasi

Annotasiya: *Disksimon ishchi organlarning bir necha xil turlari ma'lum bo'lib, ular tuproqqa ishlov berish mashinalarida keng qo'llaniladi. disksimon ishchi organni uzlukli ariqlar va o'rkachlar hosil qilish uchun qo'llab bo'lmaydi, chunki u o'tgandan so'ng har xil balandlikdagi o'rkachlar yuzaga keladi.*

Kalit so'zlar: *nishabli, disk, o'rkachlar, uzlukli ariqlar, sferik disk, balandlik.*

JUSTIFICATION OF THE OPTIMAL PARAMETERS OF THE RIPPER

Abstract: *There are several different types of disc working tools that are widely used in tillage machines. the disk-shaped working body cannot be used to create continuous ditches and sickles, since after its passage, sickles of different heights are formed.*

Keywords: *sloping, disc, ducks, continuous ditches, spherical disk, height.*

Kirish. Mamlakatimizda hozirgi kungacha nishabli dalalarga ag'dargichli asosiy ishlov berish bilan birga dala yuzasida o'rkachlar va uzlukli ariqlar hamda ariqlarda to'siqlar hosil qilish texnologiyasi va uni amalga oshiradigan pluglarni ishlab chiqish, ular tomonidan bajariladigan texnologik jarayonlarni o'rganish, ishchi qismlarni asoslash bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Tahlil va natijalar: Disksimon ishchi organlarning bir necha xil turlari ma'lum bo'lib, ular tuproqqa ishlov berish mashinalarida keng qo'llaniladi.
Rossiya Federatsiyasida G.P.Balbichev va boshqalar tomonidan [71] aylanish tekisligiga parallel tekislikda periferiya qismi lopast shaklida qilingan disksimon ishchi organ taklif qilingan. Uning har bir lopastining oldingi qirrasi radius yo'nalishidan uning aylanish tomoniga qiya qilingan. Lopastning oldingi qirrasi siniq chiziq ko'rinishida bo'lib, yuqori qismi 90º ni tashkil qiladi.
Jan-Sharl Javerlyak [72] tomonidan (1-rasm) beshta qabariq lopastga ega bo'lgan va egri qirg'ich bilan jihozlangan sferik disk taklif qilingan. Ushbu disk disksimon pluglarda qo'llanish uchun mo'ljallangan.



1-rasm. RU105108 patent bo‘yicha disksimon ishchi organ

2-rasmda keltirilgan disk logarifm spirali shaklida qilingan tishlardan iborat, uning formulasi [72]

$$\rho = \rho_0 q^{\varphi / 2\pi}, \qquad (1)$$

bunda ρ – logarifmik spiralning egrilik radiusi, sm;
ρ_0 – boshlang‘ich radius, sm;
q – logarifmik spiralning o‘sish koeffitsiyenti;
φ – radius vektorni buralish koeffitsiyenti.



2-rasm. Tishli sferik disk sxemasi

Oldingi va keyingi kesish qirralarining boshlang‘ich radiusi va logarifmik spiralning o‘sish koeffitsiyenti bir xil. Ushbu diskning kamchiligi shundan iboratki, diskning murakkab shaklini yasash texnologiyasi uni narxini oshirib yuboradi, uning tig‘i nostandart bo‘lgani uchun charxlash o‘ta murakkab.



3-rasm. Disksimon ishchi organ
a – kesik sferik diskning umumiy ko‘rinishi; b – A-A – diskning kesimi;
1 – disk; 2 – tishlar; 3 – oldingi kesish qirrasi; 4 – orqa kesish qirrasi

I.D.Kobyakov tomonidan plug va lushchilnikka o‘rnatish uchun oltiburchakli disk ishlab chiqilgan va uning parametrlari asoslangan [73].



4-расм. Oltiburchakli disk sxemasi

Asosan boronalarda foydalanish uchun *G‘*-simon “*avs”* kesikli ishchi organ (4-rasm) taklif qilingan [73]. Kesiklar disk periferiyasida teng intervallarda joylashgan. Kesik “*yev”* ning kesadigan qirrasi radial bo‘yicha joylashgan va diskning markazi *O* dan kesikning chuquri “*v*” orqali o‘tgan to‘g‘ri chiziq “*os*” ga tushadi. Ikkinchi kesish qirrasi “*av”* radius “*os*” kichik burchak < ostida, mos holda kesish qirrasi “*yeye”*.



5-rasm. Disksimon boronaning ishchi organi

Ushbu disksimon ishchi organni uzlukli ariqlar va o‘rkachlar hosil qilish uchun qo‘llab bo‘lmaydi, chunki u o‘tgandan so‘ng har xil balandlikdagi o‘rkachlar yuzaga keladi.

XULOSA

O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida tuproqqa asosiy ishlov berishning mavjud texnologiyalari va texnik vositalari nishabli dalalarga sifatli ishlov berishni to‘liq ta’minlamaydi, suv eroziyasi jarayonlarini oldini olmaydi, natijada o‘simliklarning hosildorligi va ish unumining pasayishiga olib keladi.

O‘tkazilgan adabiyotlar tahliliga ko‘ra, nishabli dalalarda suv eroziyasini oldini olishning samarali texnologiyalaridan biri tuproqqa ishlov berish bilan birga shudgor yuzasida o‘rkachlar va uzlukli ariqlar hosil qilish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR.

1. Худояров Б.М., Мардонов Ш.Х., Рашидов Н.Ш. Обоснование параметров дискового рабочего органа рыхлителя для обработки

склоновых полей// Инновасион технологиялар. – ҚарМИИ, 2021. Махсус сон – Б. 129-132. (05.00.00; № 38).
2. Mamatov F., Rashidov N., TemirovI., BadalovS. Linear-ster plow for smooth hlowing of field slopes// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. - India, 2021. – Vol.8, Issue 8. – pp.17853-17856 (*IF-6,64*).
3. Mamatov F., Umurzakov U., Mirzaev B., Rashidov N., Eshchanova G and Avazov I. Physical-mechanical and technological properties of eroded soils// E3S Web of Conferences 264, – 2021.
4. Khudayarov B., Mardonov Sh., Rashidov N., Sodikov X and Baratov D. Ripper for processing slope field// E3S Web of Conferences 264, -2021. -04034, CONMECHYDRO – 2021.
5. А.С. 105108. Диск для пахоты/ Балбычев Г.П.,Коваленко М.В.,Пинхасик В.Л., Рязанов В.М// Бюл. –2011. – № 16.
6. А.С. 2046578. Диск для пахоты и дисковый плуг/ Жаверляк Ж.Ш// А01В21/02. – 1936. – 9 стр.
7. Кобяков И.Д. Механико-технологические основы работы шестиугольных дисковых рабочих органов почвообрабатывающих орудий: Дис. … докт. техн. наук. – Новосибирск:, 2012. – 316 б.
8. T.X.Razzokov, S.J.Toshtemirov, Sh.A.Latipov. Physico-mechanical properties of seed pile of fodder crops // CONMECHYDRO – 2022 E3S Web of Conferences 365, 04027 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202336504027
9. A.Kiyamov, M.Khakimova, M.Ochilova, T.Razzakov, F.Begimkulov. Roller-combing machine for preparation of combs // AGRITECH-VIII 2023 E3S Web of Conferences 390, 01037 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339001037
10. Kiyamov A.Z., Norchaev D.R., Begimqulov F.E. «Research on the Energy Performance of the Ridge Former» International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET) ISSN: 2350-0328. IJARSET Journal Impact factor: 6.646. // Vol. 8, Issue 2, February 2021.
11. Batirov Z, Toirov I, Boymuratov F. and Sharipov Sh 2021 IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 1030, 012168
12. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУҒОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
13. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
14. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G ‘O ‘ZANI SUG ‘ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).

15. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
16. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
17. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
18. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
19. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
20. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309